

PRESS-RELIZ

O'zbekistonlik qizlar xalqaro ta'lim dasturi doirasida nano sun'iy yo'ldoshni yig'ib, samoga uchiradilar

TOSHKENT, 2021 yil 2-noyabr – UNICEF, Tech4Impact NNT va O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM - Science, Technology, Engineering and Mathematics) sohalariga qiziquvchi qizlar uchun UniSat xalqaro ta'lim dasturini rasman ishga tushirdi. Qizlarning kosmik tadqiqotlarga qiziqishini oshirishga qaratilgan ushbu dastur UNICEFning O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistondagi vakolatxonalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

"Dunyoning boshqa mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham turli sabablarga ko'ra o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida kompyuter savodxonligi, texnik ta'lim va kasb-hunar bo'yicha sezilarli farq saqlanib qolmoqda. UniSat ta'lim dasturi bu tafovutni qisqartirishga, qizlarni tegishli fan va texnologiyalarga rag'batlantirib, tegishli ko'nikmalariga ega bo'lishlariga yordam beradi", dedi UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade. "UniSat O'zbekiston yoshlari o'rtasida texnologik sohalarida gender masalasiga keng jamoatchilik e'tiborini qaratishga yordam beradi", deya ta'kidladi u.

Dastur davomida O'zbekistonning barcha viloyatlaridan tanlovdan o'tgan 15-24 yoshli qizlar dasturlash va muhandislik bo'yicha bilimlarini oshirish, shuningdek, jamoada ishlash va loyihalarni boshqarish ko'nikmalarini yaxshilash imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Ishtirokchilar nano sun'iy yo'ldoshni loyihalashtirib uni yig'adilar hamda stratosferaga uchiradilar. Bunda qizlarga professional muhandislar va dasturchilar jamoasi yordam beradi.

"Innovatsion rivojlanish vazirligi UniSat dasturini qo'llab-quvvatlashdan mamnun. O'zbekiston qizlari ilm-fan, muhandislik va ilg'or texnologiyalar sohasida rivojlanish uchun katta salohiyatga ega va biz qizlarni nanosun'iy yo'ldoshni uchirishda o'z kuchlarini sinab ko'rishga taklif qilamiz", dedi Innovatsion rivojlanish vaziri o'rinbosari Shahlo Turdiqulova. "Vazirlikda nano sun'iy yo'ldoshlarni loyihalash va yig'ish uchun barcha shart-sharoitga ega laboratoriya mavjud bo'lib, vazirlik eshiklari yoshlar uchun doim ochiq. Ehtimol, STEM sohalarini sizning kelajakdagi kasbingizga aylantiradi!"

O'quv dasturining yakuniy bosqichida nano sun'iy yo'ldoshni yig'ish uchun uchta respublikadan qizlar Alamtidagi Al-Farobiy nomli institutda yig'iladilar. Nano sun'iy yo'ldoshni O'zbekistonda uchirish 2022 yil 12-aprelga rejalashtirilgan. Qizlarning o'zlari parvoz rejasini tuzib, aeronavigatsiya xizmati mutaxassislari nazorati ostida nano sun'iy yo'ldoshni O'zbekistondagi maydondan uchiradilar.

Ishlab chiqilgan va stratosferaga uchirilgan nano sun'iy yo'ldosh qizlarga Yer va yulduzlarning yuqori aniqlikdagi suratlarini olish imkonini beradi. O'rnatilgan sensorlar kelajakda ilmiy tadqiqotlar uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'playdi.

"Biz hamkorlar bilan O'zbekistonda qizlar uchun shunday noyob dasturni yo'lga qo'yganimizdan mamnunmiz" dedi Tech4Impact nodavlat tashkiloti rahbari Saida Yusupova. "UniSat dasturida ishtirok etish qizlar uchun STEM sohasida yangi bilimlarga ega bo'lish, jamoada ishlashni o'rganish, koinot va sun'iy yo'ldoshlar haqida ko'proq ma'lumot olish, O'zbekistonning va dunyoning eng yaxshi universitetlariga o'qishga kirish uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarda tajriba orttirish, kosmos va muhandislik sohasidagi mashhur ayollar bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyatdir. UniSat dasturiga ro'yxatdan o'tish 10-noyabrgacha davom etadi va barcha STEM fanlariga qiziquvchi qizlarni ro'yxatdan o'tishga taklif qilamiz!"

Ommaviy axborot vositalari murojaat qilishlari uchun kontaktlar:

Nazokat Abduqunduzova O'zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi Matbuot kotibi Telefon: 99899 302 26 00 El.pochta: n.abduqunduzova@mininnovation.uz	Elena Selezneva Tech4Impact NNT Loyihalar bo'yicha menejer Telefon: 99890 989 72 58 El. pochta: info@tech4impact.uz
Inna Volfson UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi Yoshlar va o'smirlar rivojlanishi bo'yicha maslahatchi Tel. +998935055256 El.pochta: iwolfson@unicef.org	Nargiza Egamberdiyeva UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha maslahatchi Telefon: 99893 380 34 19 El.pochta: negamberdieva@unicef.org

Dasturning rasmiy sayti: www.unisat.uz